O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI(MEHNAT MAVZUSIGA OID MAQOLLAR MISOLIDA)

Eshkuvatova Saida Sapar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

1-kurs magistranti

Umrzoqova Sitora Javlonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

1-kurs magistranti

sitoraumrzoqova11@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida mehnat konseptining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Mehnat bilan bog‘liq maqollarda xalqning milliy-madaniy qarashlari, qadriyatlari, mehnatsevarlik, hunarga hurmat, sabr-toqat va farovonlikka intilish kabi tushunchalarning ifodalanishi yoritiladi. Shuningdek, maqollarning mazmuniy xususiyatlari, obrazlilik imkoniyatlari hamda ularda aks etgan xalq tajribasi va hayotiy qarashlar o‘rganiladi. Tahlil jarayonida mehnatga oid maqollarning til va madaniyat munosabatlarini namoyon etishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq maqollari, mehnat konsepti, lingvokulturologiya, milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik, hunar, xalq dunyoqarashi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности концепта труда в узбекских народных пословицах. Рассматривается отражение национально-культурных взглядов и ценностей народа, таких как трудолюбие, уважение к ремеслу, терпение и стремление к благополучию, в пословицах, связанных с трудом. Также изучаются содержательные особенности пословиц, их образность, а также народный опыт и жизненные представления,

отражённые в них. В ходе анализа раскрывается роль пословиц о труде в выражении взаимосвязи языка и культуры.

Ключевые слова: узбекские народные пословицы, концепт труда, лингвокультурология, национальные ценности, трудолюбие, ремесло, народное мировоззрение.

ABSTRACT: This article examines the linguocultural features of the concept of labor in Uzbek folk proverbs. It explores how proverbs related to labor reflect the national and cultural views and values of the Uzbek people, including diligence, respect for craftsmanship, patience, and the pursuit of prosperity. The study also analyzes the semantic characteristics and figurative potential of these proverbs, as well as the folk experience and life perspectives embedded in them. The analysis highlights the role of labor-related proverbs in revealing the relationship between language and culture.

Keywords: Uzbek folk proverbs, concept of labor, linguoculturology, national values, diligence, craftsmanship, folk worldview.

Kirish. Til va madaniyat uzviy bog’liq hodisa bo’lib xalqlarning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi hamda milliy qadriyatlari insonlar tilida aks etadi. Ayniqsa, maqollar kishilik jamiyatida alohida o’ringa egadir. Chunki insonlar boshidan o’tkazgan turfa voqealari, hayotiy tajribalari asosida, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarini ixcham shaklda aks ettiruvchi paremiologik birlikdir.Maqollar xalqning uzoq davrlar mobaynida o’z tajribasidan o’tgan , ming karra sinalgan hikmatli so’zlaridir.U kishilarni ezgulikka, olijanoblikka undashi, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hamda tinch-totuv yashashga chorlashi bilan hammavaqt hayot darsligi bo‘lib xizmat qiladi. Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam yoritib beradi. Maqollar mag‘ziga uni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashlari, urf-odatlari singib ketgan. Modomiki shunday ekan, maqollarning tarixiy ildizlarini aniqlash, ularning g‘oyaviy-mazmuniy jihatini ochib berish ko‘p izlanishni, uzoq yillar mobaynida sabr toqat bilan ish olib borishni taqozo etadi. Maqollar xalqning

ko‘p asrlik kuzatishlari va tajribasi asosida yuzaga kelgan, avloddan avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelgan hikmatli birliklardir. Ular nafaqat muayyan fikrni ifodalash, balki kishilarni tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazish vazifasini ham bajaradi.O’zbek tilida maqollarni har qanday vaziyatga mosini topish mumkin.Maqol xalqning ijtimoiy va ma’naviy tajribasini mujassamlashtirgan, odatda, tugal hukm shaklida ifodalanadigan folklor janridir. Uning asosiy xususiyatlari ixchamlik, obrazlilik, umumlashgan mazmun va tarbiyaviy yo‘nalish bilan belgilanadi. Maqollarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishda faqat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini aniqlash yetarli emas. Bunda maqolning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan hayotiy tajriba, unda aks etgan milliy qadriyatlar, ramziy obrazlar va jamiyatda shakllangan axloqiy qarashlar ham hisobga olinadi.

Asosiy qism. Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy aks ettiruvchi asosiy birliklardir. Ular ixcham shaklda chuqur mazmunni ifodalashi, xalqning turmush tarzi va tafakkur xususiyatlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqov tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida maqollar xalq og‘zaki ijodining mazmunan teran janri sifatida tavsiflanadi. V. A. Maslova lingvokulturologiyani til va madaniyat munosabatlarini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida yoritadi. Ushbu yondashuv asosida maqollarni tahlil qilishda ularning lug‘aviy ma’nosi bilan birga, xalqning milliy tajribasi, qadriyatlari va madaniy qarashlarini ham hisobga olish lozim (Maslova, 2001). Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning “Hikmatnoma” asari o‘zbek maqollarining ma’nosi va izohlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Mazkur manbalar asosida mehnatga oid maqollarni mehnatsevarlik, halollik, kasb-hunar, vaqtni qadrlash va mehnat samarasi kabi mazmuniy guruhlarga ajratish mumkin.

“Mehnat, mehnatning tagi -rohat”

Mazkur maqol mehnat konseptining o‘zbek xalq tafakkuridagi ijobiy bahosini ifodalaydi. “Hikmatnoma” asarining ushbu maqolga oid lug‘at maqolasida unga yaqin shakllar, jumladan, “Mehnatsiz rohat yo‘q” va “Mehnat qilmay rohat ko‘rmas” variantlari ham keltiriladi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, maqolda mehnatsevarlik, sabr-toqat va kelajakni ko‘zlab harakatqilish qadriyatlari mujassam. Xalq mehnatni shunchaki jismoniy faoliyat emas, balki farovonlikka erishishning muhim sharti sifatida baholaydi. Maqolning tarbiyaviy mazmuni insonni qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka va o‘z sa’y-harakatining natijasiga ishonishga undashda namoyon bo‘ladi.

Madaniy jihatdan maqol mehnat va natija o‘rtasidagi uzviylikni ifodalaydi. Unda insonning o‘z mehnati bilan yashashi, qiyinchiliklarni yengishi va natijaga intilishi ma’qullanadi. Shuningdek, maqol yosh avlodda mehnatga hurmat va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Manba: Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. Toshkent, 1990. Mehnat haqidagi maqollar izohi.

“Hunarli kishi xor bo‘lmas”

Mazkur maqol mehnat konseptining kasb-hunar bilan bog‘liq madaniy qatlamini ochib beradi. Maqolda hunarli kishi va xor bo‘lmas birliklari o‘rtasidagi munosabat orqali hunar egallagan insonning hayotda o‘z o‘rnini topishi ta’kidlanadi.

Lingvokulturologik jihatdan ushbu maqolda hunar insonning moddiy mustaqilligi bilan bir qatorda, ijtimoiy obro‘si va o‘ziga ishonchi bilan ham bog‘lanadi. O‘zbek madaniyatidagi ustoz-shogird an’anasi, hunarmandchilik va kasbiy tajribani avloddan avlodga yetkazish qadriyati ushbu mazmun bilan uyg‘unlashadi. Maqolning asosiy g‘oyasi - insonning mahorati va foydali faoliyati uning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi omillardan biridir.

“Harakatda - barakat”

Ushbu maqolda harakat va baraka tushunchalari o‘zaro mazmuniy aloqada kelgan. Harakat faoliyat va intilishni, barakat esa ishning unumdorligi, mo‘l-ko‘llik va ijobiy samarasini ifodalaydi. Maqolning lingvokulturologik xususiyati shundaki, unda mehnat faolligi faqat moddiy natija bilan cheklanmaydi. Baraka tushunchasi o‘zbek xalqining milliy-madaniy tafakkurida rizq, farovonlik va ishning unumli kechishi kabi ma’nolarni ham uyg‘otadi Maqol insonni faol bo‘lishga, imkoniyatlardan foydalanishga va o‘z oldiga

qo‘ygan maqsadi yo‘lida izchil harakat qilishga undaydi. Undagi qisqalik va tovush uyg‘unligi esa mazmunning esda qolishini osonlashtiradi.

“Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas.”

Maqolning lingvokulturologik xususiyati shundaki, unda o‘zbek xalqining mehnatsevarlik, sabr-toqat va hunar egallashga oid milliy qadriyatlari mujassamlashgan. Xalq tafakkurida hunar insonni kamolotga yetkazuvchi, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi muhim fazilatlardan biri sifatida qadrlanadi. Maqolda gul va dur obrazlarining qo‘llanishi orqali go‘zallik hamda qimmatga erishish oson kechmasligi ta’kidlanadi. Shu tariqa, mashaqqat insonning maqsad sari intilishida muhim bosqich sifatida talqin qilinadi.

Maqolda qo‘llangan “tikan”, “sadaf”, “dur” va “hunar” birliklari obrazli ma’no kasb etib, xalqning borliq haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Ayniqsa, “mashaqqatsiz hunar bo‘lmas” birikmasi mehnat va mahorat o‘rtasidagi uzviy munosabatni ifodalaydi. Demak, maqolning asosiy g‘oyasi inson o‘z mehnati, sabri va intilishi orqali bilim hamda hunar egallashi mumkinligini anglatishdan iborat. Bu jihatdan maqol o‘zbek lingvomadaniyatida mehnatsevarlik, matonat va kasb-hunarga hurmat kabi qadriyatlarni ifodalovchi paremiologik birlik hisoblanadi.

1-jadval. O‘zbek xalq maqollarida mehnat konseptining mazmuniy guruhlari va lingvokulturologik xususiyatlarining umumiy tasnifi.

1	Mehnat va natija	“Mehnat, mehnatning tagi - rohat”	Mehnatsevarlik, sabr-toqat va halol mehnat orqali farovonlikka erishish qadriyatlarini ifodalaydi.
2	Hunar va ijtimoiy qadriyat	“Hunarli kishi xor bo‘lmas”	Hunar egallash, kasbiy mahorat, moddiy mustaqillik va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalarini aks ettiradi.

3	Harakat va baraka	“Harakatda - barakat”	Faollik, intilish, rizq-ro‘z, unumdorlik va farovonlik haqidagi milliy-madaniy qarashlarni mujassamlashtiradi.
4	Mashaqqat va kamolot	“Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas”	Qiyinchiliklarni yengish, sabr-toqat, mehnat va hunar orqali kamolotga erishish g‘oyalarini ifodalaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollarida xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari va milliy-madaniy xususiyatlari o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ayniqsa, mehnatga oid maqollar xalqning mehnatsevarlik, sabr-toqat, halollik, kasb-hunarga hurmat va mas’uliyat kabi qadriyatlarga munosabatini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Tahlilga tortilgan “Mehnat, mehnatning tagi - rohat”, “Hunarli kishi xor bo‘lmas”, “Harakatda - barakat” hamda “Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas” kabi maqollarda mehnat va uning samarasi, hunar egallash, maqsadga erishish hamda mashaqqatlarni yengish g‘oyalari ifodalangan. Ushbu maqollarda qo‘llangan “rohat”, “hunar”, “harakat”, “barakat”, “tikan”, “sadaf” va “dur” kabi birliklar nafaqat lug‘aviy ma’noga, balki muayyan ramziy va madaniy mazmunga ham ega.

Lingvokulturologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, mehnatga oid maqollarda mehnat inson farovonligi, kasbiy kamoloti va jamiyatdagi munosib o‘rnini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Ularda mehnat va rohat, harakat va baraka, mashaqqat va mahorat o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlar obrazli shaklda ifodalanadi. Bu esa o‘zbek xalqining mehnatni qadrlash, hunar egallash va qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o‘tishga doir

qarashlarini namoyon etadi. Demak, mehnatga oid maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ochib berish, xalqning milliy tafakkuri va qadriyatlarini aniqlash hamda ularni kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bunday paremiologik birliklarni semantik, obrazli va madaniy jihatdan tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. (2019, 80-bet)

2. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 1-3-jildlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. -Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. 529-bet

3. Maslova V. A. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений.- Москва: Академия, 2001. - 208 с.

4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq, 2005.512-bet

5. Sattorova Z. I. Description of the First Uzbek Edition of “Devoni Lug‘ati-t-Turk”. // Oriental Journal of Philology. -2022. - Vol. 1, № 2. - B. 48-56. DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-01-02-07.

6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.523-bet